



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MARKAZIY OSIYO
MAMLAKATLARI BILAN ALOQALARINING O`RNATILISHI
MAVZUSIDA ADABIYOTLAR SHARHI VA TAHLILI**

Djumabayev Yorqin Turdibekovich

Oriental universiteti Tarix fakulteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O`zbekiston Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalariga oid adabiyotlar sharxiga bag'ishlangan bo'lib, unda O`zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti va prezident Sh.Mirziyoyevning asarlari, nutqlari, ilmiy tadqiqot ishlari va monografiyalar tahlil qilingan.

**Kalit so`zlar:** O`zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov, O`zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Markaziy Osiyo, O`zbekiston, Hamkorlik, aloqalar, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, huquqiy va strategik ahamiyat, madaniy almashinuv va boshqalar

Abstract: This article provides information about the relations of the Republic of Uzbekistan with the Central Asian states. Additionally, it includes information on works related to this process, their authors, as well as various monographs, dissertations, articles, and scientific papers and their authors.

Key words: First President of the Republic of Uzbekistan Islam Karimov, President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev, Central Asia, Uzbekistan, Cooperation, Relations, Socio-economic life, Legal and strategic significance, Cultural exchange, and others.



XXI asrda Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining xalqaro hayoti mustaqil ko'rinishga ega bo'lishi, o'zida muhim jarayonlarni qamrab oluvchi olamshumu hodisa bo'ldi. Markaziy Osiyo davlatlarining qadimdan bir makonda yashaganligi, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yaqinligi, urf-odat, ana'ana va marosimlarning mushtarakligi, qolaversa dinining birigi ularni har tomonlama yaqin yaqin bo'lishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Tashqi siyosatni amalga oshirishda barcha davlatlar, birinchi navbatda qo'shni davlatlar bilan do'stona munosabatlar va o'zaro hamkorlikni yanada mustahkamlashni o'zimizning birinchi darajali vazifadir"¹. Hozirgi murakkab siyosiy davrda Markaziy Osiyo davlatlari o'zlarining xavfsizligi, barqarorligini ta'minlash uchun mintqa davlatlari chuqur va mustahkam hamkorik aloqalarini yo'lga qo'yishga harakat qilmoqda. Bugungi kunda hayotning barcha sohalariga tahdid solayotgan terrorizm, giyohvandlik, narkobiznes, ommaviy madaniyat, ekologik xavf-xatar, yadro qurollarining ko'payib borayotganligi markaziy Osiyo davlatlarining yaqinligi va jipslashishi kerakligi xayotiy zaruratga aylanmoqda. Shu sababli ham ushbu mavzu tarixchilar, siyosatchilar, jamiyatshunos olimlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari aloqalari tarixini o'rganish, tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zaro aloqalarga oid adabiyotlar sovet respublikalari o'rnatilishi bilan alohida mavzu tariqasida o'rganila boshlaganligini ko'rish mumkin. Mavzuga oid adabiyotlarni tarixshunoslikning yangicha konseptual-metodologik talablari asosida bir nechta guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

1. Aloqalarning xuquqiy meyoriy asoslarga oid normativ xujjatlar
2. Davlat raxbarlarining asarlari va nutqlari
3. Ilmiy tadqiqot ishlari va monografiyalar
4. OAV lar materiallari

¹ Mirziyoyev Sh. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. I. tom. Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2019. 52-bet.



Dastlabki guruhga aloqalarning huquqiy me'yoriy asoslariga oid normativ hujjatlar tashkil etadi. Unga mamlakatimiz ushbu tarixiy voqeadan keyin o'tgan vaqt mobaynida BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan turli sohalarda samarali hamkorlik qilib kelayotganligi², Markaziy Osiyo davlatlarining yangi aloqalari: xavfsizlik va rivojlanish³, O'zbekiston tashqi siyosatining yetakchi yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi mustaqil davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan do'stlik, hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Mintaqadagi beshta davlat o'rtasida o'xshash jihatlar ko'p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dinimizning birligi, tomirlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakatlar xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir.⁴

So'nggi besh yil davomida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlariga nisbatan ochiq, konstruktiv, puxta o'ylangan va pragmatik siyosati natijasida suvdan foydalanish, O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi davlat chegaralarini delimitatsiya va demarkatsiya qilish, transport kommunikatsiyalaridan foydalanish, davlat chegaralarini kesib o'tish kabi murakkab masalalarga yechim topildi va bunday sa'y-xarakatlar izchil davom ettirilayotganligi⁵ statistik asosda keltirilgan.

Shuningdek, hukumat qarorlari va murojaatnomalar orqali qilingan ishlar ham kiradi. Jumladan, Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish" deb nomlangan beshinchi yo'nalish doirasida respublikaning konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini himoya qilishga doir chora-tadbirlarni ro'yobga chiqarish, kiberxavfsizlik sohasida axborot, normativ-huquqiy asoslar tizimini takomillashtirish, aholini favqulodda vaziyatlardan xabardor qilish tizimini tashkil etish va rivojlantirish, Orol

² www.gov.uz/ O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqasi. 2024.06.24

³ www.civil.uz/ Markaziy Osiyo davlatlarining yangi aloqalari: xavfsizlik va rivojlanish. 2023.18.10

⁴ www.studmate.uz/ Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hamkorlikning yo'lga qo'yilishi. 2022.16.07

⁵ www.strategy.uz/ Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida savdo iqtisodiy hamkorlik. 2024.07.17.



fojiasining oqibatlarini yumshatish, shuningdek Millatlararo munosabatlar sohasidagi siyosatning ustuvor yoʻnalishlari konsepsiyasini hamda Diniy sohadagi davlat siyosati konsepsiyasini ishlab chiqish⁶, IHT, IRSIKA, AYSESKO, YUNESKO kabi dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlari bilan hamkorlikda “Yangi Oʻzbekiston — Uchinchi Renessans” shiori ostida xalqaro konferensiya, simpozium va anjumanlar tashkil etish⁷, Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida⁸ hamda prezidentning qaror farmonlarida⁹ Oʻzbekistonning markaziy osiyo mamlakatlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari tizimli, statistik asosda yoritilgan.

Ikkinchi guruh tadqiqot ishlari Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentlarining asarlari, davlat rahbarlarining nutqlarida Oʻzbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarining mustahkamlanishi va ularning huquqiy asoslari ilmiy jihatdan asoslanadi. Oʻzbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimov¹⁰ning asarlari orqali oʻrganiladi. I. Karimovning “Bunyodkorlik yoʻlida¹¹: Oʻzbekiston yoshlari, istiqbol va

⁶ www.president.uz// Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.07.2017

⁷ www.lex.uz// 2022 — 2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son. 2024.12.10

⁸ www.lex.uz// Oʻzbekiston — 2030” strategiyasi toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son.2024.12.10.

⁹ www.prezident.uz// Qirgʻiz Respublikasining madaniyat va sanʼat sohalari vakillaridan bir guruhiga faxriy unvonlar berish toʻgʻrisida. PF. 2024.09.05, Qozogʻiston Respublikasining davlat va jamoat arboblardan bir guruhini mukofotlash toʻgʻrisidagi PF. 2024.08.26.

¹⁰ Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлида.- Тошкент: Ўзбекистон. 1996. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1- жилд.- Тошкент: Ўзбекистон, 1996, Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.- Тошкент: Ўзбекистон, 1997.Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йук.Тошкент: Ўзбекистон, 1998. 233-бет.

¹¹ Qarang: Karimov milliy anʼanalar, madaniyat va tilni saqlash va rivojlantirish zarurligini alohida taʼkidlaydi. Bu qadriyatlar Oʻzbekistonning yagona milliy identitetini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Oʻzbekistonning xalqaro arenadagi oʻrni, shuningdek, boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilish zarurligi haqida fikrlar bildiriladi. Karimov xalqaro munosabatlar va hamkorlikni rivojlantirishning ahamiyatini taʼkidlaydi. "Bunyodkorlik yoʻlida" asari Oʻzbekistonning mustaqillik yillaridagi rivojlanish jarayonini, bu jarayonda yuzaga kelgan muammolar va ularni hal etish boʻyicha amalga oshirilgan tadbirlarni koʻrsatadi. Muallifning fikrlari va tahlillari Oʻzbekistonning kelajagi haqida umid va ishonch bilan toʻla. Kitob, shuningdek,



vazifalar” nomli asarida¹² O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lidagi strategik maqsadlari, iqtisodiy islohotlar, ijtimoiy rivojlanish va xalqni birlashtirish jarayonlariga bag'ishlangan. O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z yo'lini qanday tanlagani, mustaqillik yillarida qilingan islohotlar, iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar tizimli, analiz, sintez, tahlil jihatdan asos puxta ishlab chiqilgan.

Islom Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari" asari asos bo'ladi. Bu asarning birinchi bobi mintaqaviy mojaralar deb nomlanib, mintaqaviy mojaralar atrofdagi davlatlar uchun (tabiiyki, O'zbekiston ham bundan mustasno emas) aynan hozir keng doiradagi muammolar manbaiga aylanganligi¹³ haqida so'z boradi.

Diniy ekstremizm va fanatizm bobida esa quyidagi fikrlar aytiladi. Markaziy Osiyodagi islomiy ma'rifat taqiqlab qo'yilgan sobiq sovet respublikalarida chin ma'nodagi bilimdon islom murabbiylari kamavib ketgan edi. Natijada har xil xurofiy irim-sirimlar ba'zan jaholatparast udumlar rivoj topdi. Bunday «chalamullalar» hozirgi kunda ba'zan eng oliy haqiqatni faqat ulargina bilishlarini. uni butun aholiga zo'rlab qabul qildirishni va odamlarning taqdirini hal etish huquqini da'vo qilib chiqmoqdalar. Biz O'zbekistonda hozir ham, kelgusida ham sovet davrining salbiy tajribasiga, mustaqilligimizning dastlabki yillarida guvohi bo'lganimiz yangi xatolarga yo'l qo'yishni xohlamaymiz¹⁴. O'zbekistonning kelajagi, XXI asrga kirishda duch kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar va taraqqiyot uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar haqida batafsil tahlil olib boradi.

davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan strategiyalarni o'z ichiga oladi. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлида.- Тошкент: Ўзбекистон. 1996. 106-бет.

¹² MDH davlat rahbarlari kengashining tor doiradagi majlisida so'zlagan nutq. 2013-yil 28-oktabr Osiyo quyosh energiyasi forumining oltinchi yig'ilishidagi nutq. 2013-yil 22-noyabr

¹³ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари.- Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 20-29-бетлар

¹⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари.- Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 27 бет



O'zbekistonning ichki va tashqi xavfsizlikka tahdidlar, shu jumladan, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy xavflar ko'rib chiqiladi. Global va mintaqaviy muammolar, terrorizm, ekstremizm va boshqa xavf-xatarlarni yoritadi¹⁵. I. Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" asari O'zbekistonning kelajakda duch kelishi mumkin bo'lgan muammolar va xavf-xatarlar, shuningdek, ularni bartaraf etish yo'llarini yoritadi.

I.A.Karimovning nutq va ma'ruzalaridagi nazariy qoidalar va xulosalar alohida ahamiyatga ega. Zero, ularda mustaqil milliy taraqqiyotning milliy modeli bilan birga tashqi siyosatning asosiy tamoyillari ifodalangan, shuningdek, madaniy aloqalarni rivojlantirishning zaruriy asoslari yoritib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh. Mirziyoyev¹⁶ning O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi" asari O'zbekistonning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishida qonun ustuvorligi va inson huquqlarining ahamiyatini ta'kidlaydi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan ijtimoiy hayotning barcha jabhalaridagi hamkorlik masalalarini ijobiy tarzda yo'lga qo'yish masalasi yoritiladi¹⁷. O'zbekiston taraqqiyoti va xalq farovonligini ta'minlash uchun qabul qilingan qarorlar, islohotlar va tashabbuslar haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Sh. Mirziyoyev asarida O'zbekistonning kelajagi uchun istiqbol va maqsadlar belgilaydi. U ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar orqali O'zbekistonni yanada rivojlantirish, xalq farovonligini oshirish va xalqaro maydonda munosabatlarni yaxshilash zarurligini ta'kidlaydi. Jumladan, MDH, SHHT, BMT va Islom hamkorlik tashkilotlari

¹⁵ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари.- Тошкент: Ўзбекистон, 1997. 45-58 бетлар

¹⁶ Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. ЎЗР Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис Тошкент: Ўзбекистон, палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. 2016. 51 бет

¹⁷ Шавкат Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 25-27 бетлар.



O'zbekistonning milliy manfaatlariga xizmat qilishi haqida so'z boradi¹⁸. Mazkur asar O'zbekistondagi islohotlar va taraqqiyot jarayonlariga oid muhim fikrlar va tahlillarni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" asarida O'zbekistonning kelajagini shakllantirishda xalqning o'rni, jamiyat va davlat o'rtasidagi hamkorlikni ta'kidlaydi¹⁹. Bunda xalqning davlat ishlaridagi ishtiroki, fuqarolar va rahbariyat o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ijtimoiy adolatni ta'minlash, xalq farovonligini oshirish va ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yoritadi. O'zbekistonning madaniy merosi, milliy qadriyatlar va an'analar haqida fikrlar beriladi²⁰. Kitob davlat va xalq o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni analiz, sintez, qiyosiy tarixiylik jihatini yoritishi bilan muhimdir.

Uchinchi guruhga esa tadqiq etilayotgan mavzu bo'yicha sovet davri, mustaqillik davri va undan keyingi adabiyotlar, monografiyalar hamda tadqiqotlarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy aloqalari tadqiq etilgan ishlar tashkil etadi. Bulardan Ch.A. Abutolipov, L. Avdeeva, L. Albaum, B. Aminov, T. Androshina, Y. Arutunyan, H. Hasanov, N. Mamatxonov, Lunin, Sh. Yakubov, A. Yaroskiy, A. Sobirov va

¹⁸ Шавкат Мирзиёев. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 26 бет.

¹⁹ Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мard ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 273-бет

²⁰ Шавкат Мирзиёев. Буюк келажакимизни мard ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз. Тошкент, Ўзбекистон, 2017. 178-бет



boshqa²¹larning ularda Sovet O'zbekistonining xalqaro iqtisodiy, madaniy, ilmiy aloqalarining nazariy asoslari ishlab chiqilgan.

Bu davrda yaratilgan asarlarning alohida ajralib turadigan xususiyati shundaki, ular sovet kommunistik mafkurasi hukmronligi ruhida yozilgan bo'lib, O'zbekistonning madaniy aloqalari Sovet Ittifoqi xalqaro aloqalarining bir bo'lagi sifatida talqin qilingan. Asosiy e'tiborni sotsializm g'alabasi va uning xalqaro maydondagi targ'ibot ishlariga qaratganlar. Xulosalar chiqarishda esa, davr nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda hukmron partiya manfaatlarini ifodalashga uringan. Shuningdek, Sovet Ittifoqi davlatlari, shu jumladan, O'zbekistonning ham mustaqil aloqalar o'rnatish huquqiga ega emasligi va tashqi siyosat faqat markaz ruxsati bilan amalga oshirilishi ochib berilmagan.

A. Abutolipov o'zining O'zbekistonning xalqaro aloqalari nomli kitobining sakkizinchi bobida sovet ittifoqining iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy aloqalari haqida muhim ma'lumotlar berib o'tgan²². Bundan tashqari yuqorida ko'rsatilgan asarda savdo aloqalar, transport kommunikatsiyasi, madaniy, adabiyot va san'at borasida ham muhim ma'lumotlar keltirilgan²³. Ushbu kitob orqali sovet ittifoqi tarkibida bo'lgan O'zbekistonning qo'shni

²¹ Абутолипов Ч.А. Ўзбекистоннинг халқаро алоқалари. Тошкент: Ўздавнашр, 1964, Авдеева Л. Мукаррама Тургунбоева ракси. Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989, Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. – Ташкент, 1975, Аминов Б. Ўзбекистон ёшларининг ҳамдўстликни мустахкамлашдаги иштироки. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985, Андрюшина Т.Ю. О теории и практике разработки перспективных схем развития иностранного туризма // Проблемы иностранного туризма в СССР. Сборник трудов. – М., 1983. Вып. 5, Арутюнян Ю.В., Дробизева Л.М. Многообразие культурной жизни народов СССР.- М.: Мысль, 1987, Ҳасанов Ҳ. Сайёҳ олимлар.- Тошкент: Ўзбекистон, 1981, Маматхонов Н. СССРнинг хорижий мамлакатлар билан маданий алоқасида Ўзбекистоннинг хиссаси. Тошкент: Ўзбекистон, 1982, Лунин Б.В. История Узбекистана в источниках (известия путешественников, географов и ученых XVI- первой половины XIX в).- Ташкент, 1984, Якубов Ш. Взаимно обогащение национальных культур в условиях развития социализма- Тошкент: Узбекистан, 1982, Яроцкий А.И. Поддубный А.А. Ўзбекистоннинг халқаро спорт алоқалари.- Тошкент: Ўзбекистон, 1980, Сабилов А.Т. Участие Узбекской СССР в культурном сотрудничестве СССР с социалистическими странами (60-80- е гг.) Автореф. канд. ист. наук... Ташкент, 1987

²² Қаранг. Абутолипов Ч.А. Ўзбекистоннинг халқаро алоқалари. Тошкент: Ўздавнашр, 1964. 8-бет.

²³ Батафсил. Абутолипов Ч.А. Ўзбекистоннинг халқаро алоқалари. Тошкент: Ўздавнашр, 1964. 13-21-бетлар



davlatlar bilan hayotning barcha jabhalarida hamkorligi xronologik tarzda tizimli qilib asoslangan.

B.Aminovning “O‘zbekiston yoshlarining hamdo‘stlikni mustahkamlashdagi ishtiroki”²⁴ asarida O‘zbekiston yoshlari va ularning o‘zaro hamkorlik, do‘stlik va hamdardlikni rivojlantirishdagi o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlagan. Mazkur kitobda yoshlarga oid ijtimoiy, madaniy va siyosiy masalalar ko‘rib chiqiladi, hamdo‘stlik va birlashish tushunchalari yoritiladi²⁵. Shuningdek, yoshlarning global muammolar, xususan, ekologiya, tinchlik va inson huquqlari²⁶ kabi masalalarda qanday faoliyat yuritishi kerakligini ta’kidlaydi. O‘zbekiston yoshlari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o‘rni, do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan metodologik tarzda yoritilgan manba sifatida taqdim etiladi.

Mazkur guruhga oid bo‘lgan tadqiqotlardan biri mustaqillik yillaridan keyin O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorligi masalasini tadqiq etgan olimlar tashkil etadi. Ular N. Abdullayeva, B. Abdurahimova, E. Avdokushin, A. Ziyo, M. Arslanov, O. Astafayeva, M. Ashurova, N. Bagdarasyan, V. Krilova, V. Livshis, O`. Mavlonov, E. Mareva, I. Morozova, R. Murtazayeva, N. Mustafayeva, B. Eshov, X.

²⁴ Аминов Б. Ўзбекистон ёшларининг ҳамдўстликни мустахкамлашдаги иштироки. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. 196-бет.

²⁵ Mazkur kitobda O‘zbekiston yoshlari va ularning faoliyatini tahlil qilgan holda, ularning ijtimoiy hayotda, jamiyatni rivojlantirishda qanday rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Shuningdek, muallif yoshlarga do‘stlik, hamkorlik va o‘zaro yordamni rivojlantirishga chaqiradi. Kitobda yoshlarning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy jarayonlarga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Yoshlarning o‘zaro aloqalari va hamkorligi haqida fikrlar beriladi. Muallif hamdo‘stlikni mustahkamlashda yoshlarning roli, ularning bir-biri bilan aloqalari va do‘stlikni rivojlantirishdagi muhimligini ta’kidlaydi. Yoshlarga madaniy va axloqiy tarbiya berish, ularni milliy qadriyatlar va an’analar bilan tanishtirish masalalari yoritilgan. Yoshlarga siyosiy jarayonlarda ishtirok etishning ahamiyati, ularning fikrlarini bildirish va jamiyatni boshqarishga hissa qo‘shishlari haqida gap boradi. Kitobda yoshlar o‘rtasida yuzaga keladigan muammolar, ularning yechimlari va bu jarayonda ijtimoiy tashkilotlarning roli haqida ma’lumotlar beriladi. Батафсил: Аминов Б. Ўзбекистон ёшларининг ҳамдўстликни мустахкамлашдаги иштироки. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. 72-76-бетлар.

²⁶ Аминов Б. Ўзбекистон ёшларининг ҳамдўстликни мустахкамлашдаги иштироки. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. 194-бет.



Yunusova, A. Qirg'izboyev, H. Hamidov, N. Ziyamov, A. Mavrulov, M. Rahimov va boshqalar²⁷ ning ilmiy ishlarida Markaziy Osiyo mamlakatlarning aloqalari, madaniyati, san'ati, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab oluvchi sohalari tarixiylik, xronologik, statistik jihatdan ahamiyatlidir.

A.Qirg'izboevning "O'zbekiston Respublikasining Osiyo davlatlari bilan xalqaro hamkorligi" asari O'zbekistonning Osiyo mamlakatlari bilan o'zaro aloqalarini, diplomatik munosabatlarini va iqtisodiy hamkorligini tahlil qilishga qaratilgan²⁸. Kitobda

²⁷ Абдуллаев Н. Россия истилоси даврида Марказий Осиё санъати.- Тошкент, 1999, Абдурахимов Б. Художественная культура Узбекистана: XX век (социо- динамические аспекты исследования). Ташкент: Узбекистан. 2000, Авдокушин Е.Ф. Международные отношения: Учеб. пособие.- М.: ИВЦ" Маркетинг", 1996, Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент, Шарқ, 2000, Арсланов М.Г. Татарский театр в контексте сценических культур Средней Азии и Казахстана // Вестник Казанского Государственного университета культуры и искусств. – 2012, №2, Астафьева О.Н., Аванесова Г.А. Развитие национальной культуры и культурная политика в Российской империи и СССР: сравнительный анализ // Ярославский педагогический вестник. – 2015. № 4, Ашурова М. Қўғирчоқ театр санъатининг актёрлик мактаби.- Тошкент, 2007, Багдасарян, В.Э. Советское зазеркалье. Иностранный туризм в СССР в 1930-1980- е годы.- М.: ФОРУМ, 2007. 30. Багдасарян В.Э. « Интурист » как идеологический актер холодной войны// Современные проблемы сервиса и туризма. Т.10.№ 4.- 2016, Крылова В.К. Якутский театр в русле политической идеологии 1920- х годов// Austrian Journal of humanites and Social Sciences.- 2014, Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья.- СПб.: 2008, Мавлонов Ў., Маҳкамova Д. Маданий алоқалар ва савдо йўллари- Тошкент: Академия, 2004, Мареева Е Культурология. Теория и история культуры. М.: Наука, 2008, Морозова И.П. Деятельность театров на Южном Урале в начальный период « оттепели »// Самарский научный вестник. 2017 Т. 6, No 4 (21), Муртазаева Р.Х. Ўзбекистон тарихи.- Тошкент, 2003, Мустафаева Н.А. XX асрда Ўзбекистонда маданият ва тафаккур. Тарихшунослик таҳлили.- Тошкент: Navro'z. 2014, Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи.- Тошкент: Янги аср авлоди, 2012, Юнусова Х.Э. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари.- Тошкент: Заркалам, 2005, Қирғизбоев А.К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё давлатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент, 2004, Ҳамидов Ҳ. Ўзбек анъанавий кўшиқчилик маданияти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996, Зиямов Н.Ш. Роль Узбекистана межгосударственного, экономического И В развитии культурного сотрудничество стран Центральной Азии (1991-2001 гг): Автореф. канд. ист. наук.- Ташкент, 2002, Маврулов А. Ҳозирги босқичда Ўзбекистон маданияти ҳолати, муаммолар, тараққиёт йўналишлари (70- йил ўрталари- 90- йиллар): Тарих фан докт.... дисс.- Тошкент, 1993, Рахимов М.А. Сотрудничество Узбекистана с зарубежными странами международными организациями В обеспечении стабильности и устойчивого развития в Центральной Азии (1991-2010 гг.): Доктор. ист. наук... дисс.- Ташкент, 2012

²⁸ Қирғизбоев А.К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё давлатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент, 2004. 168-бет.



O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan o'rnatilgan diplomatik munosabatlar, ular bilan imzolangan kelishuvlar va shartnomalar²⁹ nazariyalar, aloqalarning huquqiy asoslari, statistik ma'lumotlarga boy bo'lganligi sababli juda qimmatlidir.

Unda har bir mamlakat bilan o'zaro aloqalarning tarixiy va zamonaviy jihatlarini ko'rib chiqadi. O'zbekiston va Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi savdo-sotiq, investitsiyalar va iqtisodiy hamkorlik sohalaridagi o'zaro aloqalar yoritiladi³⁰. Mazkur asar diplomatiya, iqtisodiyot va madaniyat sohalaridagi aloqalarni chuqur tahlil qilgan muhim manba hisoblanadi.

To'rtinchi guruh tadqiqot ishlariga ommaviy axborot vositalarida O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o'rnatilgan iqtisodiy – ijtimoiy, madaniy aloqalari ommaviy tarzda ma'lumot beradi. “Yangi O'zbekiston”³¹ – gazetasida O'tgan tarixan qisqa davrda yurtimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o'rni va nufuzi keskin oshdi. Dunyoda Yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi. Birinchi navbatda, qo'shni davlatlar bilan munosabatlarimizda yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar hal etildi. Chegaralar ochildi. Qo'shni – qo'shnisi bilan, aka – ukasi, ota – bolasi, qarindosh – qarindoshi bilan uzilib qolgan aloqalarni tiklab, bir mamlakatdan ikkinchi davlatga emin-erkin borib kela boshladi. Viza masalalari hal etildi. Savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarimiz

²⁹ Qarang: 1992-yil O'zbekiston – Qozog'iston, 1993-yil O'zbekiston – Qirg'iziston, 1997-yildan keyin O'zbekiston – Tojikiston davlatlari bilan o'zaro yordam va iqtisodiy hamkorlikka oid shartnomalar imzolangan. Қирғизбоев А.К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё давлатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент, 2004. 142-бет.

³⁰ Asar siyosiy barqarorlik, mintaqaviy xavfsizlik va Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi muloqotlarni rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratadi. Muallifning fikricha, bu hamkorlik mintaqada barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Kitobda O'zbekiston va Osiyo davlatlari o'rtasidagi madaniy almashinuvlar, ta'lim va ilmiy hamkorlik masalalari ham ko'rib chiqiladi. Muallif, madaniy aloqalar orqali xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlikni mustahkamlash mumkinligini ta'kidlaydi. O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorligi global muammolarga, jumladan, ekologiya, terrorizm va inson huquqlari masalalariga qarshi kurashda qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida fikrlar keltiriladi. Batafsil: Қирғизбоев А.К. Ўзбекистон Республикасининг Осиё давлатлари билан халқаро ҳамкорлиги. – Тошкент, 2004. 182-бет

³¹ Yangi O'zbekiston// Ma'lumki, keyingi besh yil davomida mamlakatimizda keng miqyosdagi demokratik o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. “Yangi O'zbekiston” degan tushuncha real voqelikka aylanmoqda 2021.17. 08.



jadal rivojlanmoqda. Azal-azaldan o‘zaro qardosh va birodar bo‘lgan mamlakatlarimiz ko‘pgina mintaqaviy va global masalalar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bo‘yicha yaqin hamkorlikda harakat qilishni boshladi. Jahon siyosatshunosligida “Markaziy Osiyo ruhi” degan ibora paydo bo‘lganligi haqida muhim fikrlar berilgan.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan 2016 yildan 2019 yilgacha bo‘lgan savdo aylanmasi 2 barobardan ziyod oshib, 2,5 milliard dollardan 5,2 milliard dollargacha o‘sdı. O‘shı ko‘rsatkichi Qozog‘iston bilan — 1,8, Qirg‘iziston bilan — 5, Turkmaniston bilan — 2,7 va Tojikiston bilan — 2,4 barobarni tashkil etdi. O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan umumiy savdo aylanmasidagi ulushi hajmi ham 10,2 dan 12,4 foizga oshganligi³² haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari OAV materiallari bazasiga ijtimoiy tarmoq saytlari orqali berilgan ma’lumotlar ham tashkil etadi. Bular my.gov.uz, uza, strategy.uz, civil.uz, president.uz, lex.uz, nauchniyimplus.uz, fledu.uz, studate.uz kabi bir qancha ijtimoiy tarmoqlarda O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlari haqida yoritiladi. Masalan, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasini barqaror rivojlantirish yo‘lida muhim qadam³³, O‘zbekistonning BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan hamkorligi O‘zbekiston yangi suveren, mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga (BMT) 1992-yil 2-martda a‘zo bo‘ldi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida ko‘rib chiqilgan adabiyotlar taxlili shuni ko‘rsatadiki O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari bilan mustahkam do‘stlik, yaqin qardoshlik, tili, dini va madaniyati bir biriga o‘xshash bo‘lganligi, shuningdek, bu xalqlarning qadim ildizi yagona daraxtga borishi isbotini topadi. O‘zbekistonning Markaziy

³² www.statii.uz/ Xalq so‘zi// Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni rivojlantirish — taraqqiyot omili. 2021. 07.21

³³ www.uza/ Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqasini barqaror rivojlantirish yo‘lida muhim qadam. 2021.17.07



Osiyo davlatlari bilan aloqalari rivojlanishi uchun bir qator muhim omillarni hisobga olish lozim. O'zbekiston, geografik jihatdan mintaqada markaziy pozitsiyani egallagan holda, o'zaro iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda faol rol o'ynaydi.

O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarining rivojlanishi quyidagi asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi. Savdo-sotiq, investitsiya, va umumiy iqtisodiy loyihalar orqali mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash. Tarixiy va madaniy merosni saqlab qolish, xalqaro aloqalarni kuchaytirish orqali xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash. Mintaqada suv resurslarining boshqarilishi va atrof-muhit masalalari bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish, bu ham barqaror rivojlanish uchun zarurdir. O'zbekiston va uning qo'shni davlatlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, kelajakda Markaziy Osiyoning barqaror va farovon rivojlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bunday hamkorlik mintaqada o'zaro tushunish va barqarorlikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. ЎзР Президенти лавозимида киришиш тантанали маросимида багишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ Тошкент: Ўзбекистон, 2016.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови Тошкент: Ўзбекистон, 2017
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халкимиз билан бирга курамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2017 8. Абдуллаев Н. Санъат тарихи Икки жилдлик. Тошкент Санъат, 2001
4. Каримов И.А. Бунёдкорлик йулида Тошкент: Ўзбекистон, Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиклол, иқтисод, сиёсат, мафкура 1- жилд- Тошкент: Ўзбекистон, 1996



5. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йук. Тошкент. Ўзбекистон, 1998.
6. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараккиёт кафолатлари- Тошкент Ўзбекистон, 1997
7. Абдуллаев Н. Россия истилоси даврида Марказий Осиё санъати.- Тошкент, 1999
8. Абдурахимов Б. Художественная культура Узбекистана: XX (социо- динамические аспекты исследования) Ташкент. Узбекистан. 2000
9. Абутолипов Ч.А. Ўзбекистоннинг халқаро алоқалари. Тошкент: Ўздавнашр, 1964.
10. Авдокушин Е.Ф Международные экономические отношения Учеб пособие.- М. ИВЦ" Маркетинг", 1996 13. Авдеева Л. Мукаррама Тургунбоева ракси Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
11. Агаджанян Л.Л.<< Оттепель » в истории отечественной культуры конъюнктурное и непреходящее// Вестник МГУКИ 2015.4 (66) июль- август.
12. Азамат Знё. Ўзбек давлатчилиги тарихи: Энг қадимги даврдан Россия босқинига қадар. – Тошкент, Шарк, 2000
13. Алтян А.Г. Дегтярев Н.А. Культурная политика СССР в послевоенное десятилетие (на примере театров Южного Урала) // Вестник Кемеровского государственного университета – 2017. № 3.
14. Аминов Б. Ўзбекистон ёшларини ҳамдўстликни мустахкамлашдаги иштироки – Тошкент. Ўзбекистон, 1985
15. Анищенко Т.Ю. О теории и практике разработки перспективных схем развития иностранного туризма // Проблемы иностранного туризма в СССР Сборник трудов. – М, 1983. Вып. 5.
16. www.civil.uz
17. www.yuz.uz
18. www.lex.uz
19. www.president.uz.
20. www.statii.uz